

**SIRDARYONING O'RTA HAVZALARIGA OID ARXEOLOGIK
TADQIQOTLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR**
(*Qovunchi madaniyati misolida*)

Raxmonov Ulug‘bek Mamadali o‘g‘li

Namangan Davlat Universiteti arxeologiya kafedrasи o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sirdaryoning o‘rta havzalarining nafaqat Toshkent vohasi, balki Janubiy Qozog‘iston hududlariga ham keng ko‘lamda yoyilgan Qovunchi madaniyatining tarqalishi va uning arxeologik jihatdan o‘rganilishi, davrlashtirilishi hamda mazkur hududlardan topilgan arxeologik materiallarni tahliliy natijalari muhakama qilingan.

Kalit so‘zlar: Qovuchitepa, stratigrafik, Shoshtepa, Kindiktepa, Banokat, Toshkent vohasi.

**SOME REMARKS ON THE ARCHAEOLOGICAL RESEARCH ON THE
MIDDLE BASINS OF THE SIRDARYA RIVER**
(In the case of Kauchi culture)

ABSTRACT

In this article, the spread of the Kauchi culture, which spread widely in the middle basins of the Syrdarya, not only in the Tashkent oasis, but also in the regions of South Kazakhstan, and its archaeological study, periodization, and the analytical results of the archaeological materials found in these areas are discussed.

Keywords: Kauchi, stratigraphic, Shoshtepa, Kindiktepa, Banokat, Tashkent oasis.

KIRISH

Bugungi kunda tarix va unga yondosh fanlarga bo‘lgan ehtiyoj har doimgidanda yuqori ekanligini qayd etish lozim. Chunki, ayni zamondagi globallashuv jarayonlari har bir xalqning globallashayotgan dunyoda o‘zligini saqlash uchun o‘z tarixiy ildizlariga imkon qadar mustahkamroq o‘rnashishini talab etmoqda. Shu maqsadlardan kelib chiqib, O‘zbekistonning antik davr tarixi bo‘yicha katta ahamiyatga ega bo‘lgan Qovunchi madaniyati nomi bilan yuritib kelinayotgan madaniyatning o‘rganilishi va unga doir ayrim fikr-mulohazalarni tahlil etish ushbu maqolada maqsad qilib qo‘yildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekiston va umuman Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Qovunchi madaniyati nomi bilan tanilgan ushbu arxeologik tadqiqot natijasi bevosita G. V. Grigoryev nomi bilan bog‘liq. G. V. Grigoryevning Qovunchitepada olib borgan arxeologik qazishmalari Toshkent arxeologiyasi tarixida muhim kashfiyotlarga olib keldi, ya’ni G. V. Grigoryev Qovunchi arxeologik madaniyatini fanga olib kirdi va uni ikkita xronologik bosqichga ajratdi. Qovunchi madaniyati Toshkent vohasi, Sirdaryoning o‘rta oqimi va Farg‘onaning shimoli-g‘arbiy qismida tarqalgan.

NATIJALAR

Qovunchi madaniyati miloddan avvalgi II asr – milodiy VI asrlarga oid arxeologik madaniyat. Uning nomi dastlab o‘rganilgan joy – Qovunchitepa xarobasi nomidan olingan. Qovunchi madaniyati Toshkent vohasi, Sirdaryoning o‘rta oqimi va Farg‘onaning shimoli-g‘arbiy qismida tarqalgan. G. V. Grigoryev 1934- va 1935-yillarda Qovunchitepada stratigrafik xarakterdagi arxeologik qazishmalar o‘tkazdi (Grigoryev, 1935; 1940). Arxeolog G. V. Grigoryev uni 2 bosqich – Qovunchi 1 va Qovunchi 2 ga ajratgan (u Qovunchi I miloddan avvalgi II ming yillik oxiri va I ming yillik boshiga oid, Qovunchi II miloddan avvalgi VI asr – milodning boshlariga oid, deb belgilagan).

MUHOKAMA

Arxeolog A. I. Terenojkin Toshkent vohasi va So‘g‘ddagi yodgorliklarni o‘rganib, Qovunchi I ni miloddan avvalgi II – I asrlarga, Qovunchi II ni milodning boshi – VI asrga oid deb topdi. Arxeolog L. M. Levina esa sopol majmualarini o‘rganib, Qovunchi I ni miloddan avvalgi I – milodiy III asr, Qovunchi II ni milodiy IV – V asrga oid, deb belgilashni taklif etdi va Qovunchi madaniyatini yana Qovunchi III bosqichi (VI – VIII asr boshi)ga ajratadi.

Shoshtepani o‘rganish natijasida birinchi marta madaniy qatlamlarning aniq stratigrafiyasi belgilandi. Bu esa Qovunchi madaniyati aniq davrini (Qovunchi I miloddan avvalgi II – I asrlar; Qovunchi 2 ikki bosqichga bo‘linib, uning 1-bosqichi milodiy I – IV asrlar, 2-bosqichi – V – VI asrlar) belgilashga asos bo‘ldi. (Grigoryev, 1935, s. 39; 1940, s. 9; 1948, s. 49.).

Toshkent vohasida Qovunchi madaniyati yodgorliklarini muntazam o‘rganish ishi bilan 1960- yillar oxiridan boshlab, Yu. F. Buryakov shug‘ullana boshladi (Buryakov, Dadaboyev, 1973, s. 38-51). U. G. Dadaboyev bilan Qulochchintepa, Niyozboshitepa, Shoshtepa, Cho‘ngtepa, Ahmadtepa va Qovunchitepa kabi yodgorliklarda izlanishlar olib bordi. Niyozboshitepa, Qovunchitepa, Qulochchintepa, Shoshtepa va Ahmadtepalarda stratigrafik kuzatuvlar o‘tkazdi. 1971-1972 yillardan boshlab, butun voha bo‘ylab keng ko‘lamli arxeologik tadqiqot ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Yu. F. Buryakov shogirdlari va kasbdoshlari bilan birgalikda Toshkent vohasining eng qadimgi shaharlari Qanqa, Kavardon, Kulota, Kindiktepa, Banokat, To'rtko'ltepa, Shamatepa, Chordara, Dalvarzintepa, Oqqa'rg'on, Oqatastepe kabi shahar va shaharmonand aholi punktlarida keng ko'lamlı arxeologik izlanishlar olib borildi.

V. A. Bo'latova va M. I. Filanovich rahbarligidagi guruh Shoshtepa, No'g'aytepa, Mingo'rik, Chilonzor Oqtepasi, Yunusobod Oqtepasi kabi yodgorliklarda keng ko'lamlı qazishmalar olib borib, qadimgi Toshkent tarixini o'rganish bo'yicha arxeologik izlanishlar olib bordilar.

Har xil yillarda Qovunchi madaniyatiga tegishli katakomba tuzilishidagi qator mozor-qo'rg'on majmualari, ya'ni Piskent mingtepa mozor-qo'rg'onlari, Olmaliq va Xonobod tuproq qo'rg'onlari, Kavardon qo'rg'onlari, Qizilolma, Apartak, Do'lanabuloq kabi 40 dan ortiq mozor-qo'rg'onlar topilib tadqiq etilgan. Bu yodgorliklardan boy arxeologik materiallar kompleksi qo'lga kiritildi.

Toshkent vohasi Qovunchi madaniyati shakllanishining asosiy markazi bo'lgan. Qovunchi majmularida me'morlik an'analariga asoslangan, yuksak mudofaa inshootlariga ega bo'lgan shaharsozlik, sopol idishlar va haykalchalar shaklining o'ziga xos xususiyatlari tarkib topgan.

Qovunchi madaniyati vohada shaharlar va shahar madaniyati paydo bo'lishi hamda irrigatsiya tizimlarining takomillashishi asosida dehqonchilikning yanada rivojlanish davrida tarqalgan. Qovunchi majmulari asosida Toshkent shahar madaniyati paydo bo'lgan va yanada rivojiana boshlagan. O'sha davrdagi aholi maskanlari ark va uning atrofida 1 yoki 2 qishloqdan iborat bo'lib, ularning ayrimlari mudofaa devorlari bilan o'rangan.

Shaharlar hunarmandchilikning har turli kasb-hunarlari qaror topgan joy va savdo-sotiqning asosiy tayanch manzili hisoblangan. Metallga ishlov berish (temirchilik, jez asboblar quyish) ancha rivojlangan. Kulolchilikda sopol idishlar yasash asosiy o'rin egallagan, ularning turi, shakli ko'paygan. Sopol idishlarning tagi tekis bo'lgan.

Qovunchi I da kuvacha, tovoq, qizg'ish yoki bo'g'iq qo'ng'ir rang berilgan sopol idishlar; Qovunchi II da qulqoli xurmachalar, bandlari hayvon shaklidagi turli idishlar va xurmachalar uchraydi. Qovunchi madaniyatiga xos idish qopqoqlari, ko'ralar, shuningdek, diniy marosim buyumlari, 2 boshli qo'chqor yoki shoxli ho'kiz boshlari shaklida yasalgan o'choq poy-tagliklari topilgan, ulardan tutatqi solinadigan va qurbanlik qilinadigan idish sifatida ham foydalanilgan Xo'jaligi dehqonchilik va yaylov chorvachiligiga asoslangan qovunchiliklar jamiyatida aholi dehqonchilik ma'budalari, olov va ajdodlar ruhiga sig'ingan.

Milodning dastlabki asrlarida (IV asrdan) Qovunchi madaniyati janubga tomon tarqalib, So‘g‘d, Qashqadaryo hududidagi mahalliy madaniy majmualarga ta’sir eta boshlagan. Bu esa qovunchiliklarning janubga ko‘chib o‘tganligidan dalolat beradi.

VI asrga kelib, O‘rta Osiyoning markaziy rayonlaridagi vohalar bilan iqtisodiy va savdo aloqalarining kuchayishi hamda umumso‘g‘d madaniyati ta’sirida Toshkent vohasida Qovunchi madaniyati VI asrdan o‘ziga xos alomatlarini yo‘qotdi, sekin-asta butun Movarounnahrga xos yagona madaniyat vujudga kela boshladi.

Keyingi yillarda kompleks asosda olib borilgan arxeologik va antropologik tadqiqotlar Qovunchi madaniyatining tarqalish geografiyasini Sirdaryoning o‘rta havzalarining nafaqat Toshkent vohasi, balki Janubiy Qozog‘iston hududlariga ham keng ko‘lamda yoyilganligidan dalolat beradi. Chordara arxeologik ekspedisiyasining (1959 – 1963- yillar) Oqtoba I va Oqtoba II, Shovshuqumtoba shahar xarobalari va Jamanto‘g‘ay, Oqtoba, Shovshuqumtoba, To‘raboy Tumshiq kabi qadimgi qabristonlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar bunga misol bo‘la oladi. Bu yodgorliklar Qovunchi madaniyatiga tegishli bo‘lib, ayniqsa, ularning mozor-qo‘rg‘onlaridan topilgan materiallar qang‘arlarning urf-odatlari va mafkuraviy qarashlarini Toshkent vohasi aholisi bilan bir ekanligi bilan xarakterlanadi (Maksumov, Marshiyev..., 1968, s. 8). O‘rta va yuqori Aris havzasiga joylashgan bu yodgorliklar Qovunchi madaniyati aholisining xo‘jalik va etnomadaniy hayoti, uning rivojlanish yo‘lini aniqlashda katta ahamiyatga ega (Podushkin, 1970, s. 73 – 107).

XULOSA

Yuqorida bayon etilgan boy arxeologik materiallardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Toshkent vohasida antik davrida shakllangan Qovunchi madaniyati so‘nggi antik va ilk o‘rta asrlar davomida Sirdaryoning o‘rta havzalari bo‘ylab keng tarqaydi. Ularni hozirgacha arxeologik jihatdan keng o‘rganilib, tarixiy nuqtai nazardan tahlil etib kelindi. Biroq, ularni davrlashtirish va davrlarning aniq chegaralari bo‘yicha yakuniy xulosalarga kelingan emas. Shu sabab mazkur mavzu yangi tadqiqotlarni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- Григорьев Г. В. (1935) *Отчет об археологической разведке в Янгиюльском районе Уз.ССР в 1934 г.*
- Григорьев Г. В. (1940) *Каунчимена (раскопки 1935 г.).*
- Григорьев Г. В. (1940) *Краткий отчет о работе Янгиюльской археологической экспедиции 1937 г.*
- Григорьев Г. В. (1948) Келесская степь в археологическом отношении. «Изв. АН Каз ССР». № I, Серия археологическая. Алматы.

5. Буряков Ю. Ф. & Дадабаев Г. (1973) Памятники античного времени в Ташкентском оазисе. *ИМКУ, № X.*
6. Максимова А. Г., Мерщиев М. С., Вайнберг Б. И. & Левина Л. М. (1968) *Древности Чардары*. Алматы.
7. Ortikov, Y. A. (2023). National Language as a Factor of Ethno-Cultural Identity in the Dungans of Uzbekistan. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(5), 11-16.
8. Подушкин Н. П. (1970) *Ранние оседлое поселение долины Арыса (I-VIII вв.)* Автореф. канд. дисс. Алма-Ата.
9. Подушкин Н. П. (1970) *По следам древней культуры Казахстана*. Алма-Ата.